



“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil, 12-13-noyabr

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

“BOBURNOMA”DA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLI TIL BIRLIKLAR VA ULARNING INGLIZCHA TARJIMALARI

*Ziyodaxon Teshaboyeva,
ToshDO‘TAU professori, f.f.d.*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/SOEW6794

Annotatsiya. Butun dunyoga ma’lum va mashhur “Boburnoma” leksikasi har bir soha uchun manba vazifasini o‘tay oladigan mumtoz asardir. Uning bosqichma-bosqich olib borilgan ingliz tiliga tarjimalari esa tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun empirik vositani bajaradi. Ushbu maqolada “Boburnoma” asarida qo‘llangan milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarini va ularning tarjimadagi muammolari tahlil qilinadi. Tarjimonlarning tarjima jarayonida adekvatlikka erishishga urinishlari ochib beriladi. “Boburnoma”ning turli davrlarda J.Leyden-Villiyam Erskin (1826), A.S.Beverij (1926) va V.Tekston (1996) tomonidan olib borilgan tarjimalari tahlil qilinadi. Milliy madaniy so‘zlar tarjimonlar uchun doimiy muammo bo‘lishi, unga til sohibining yondashuvi muhimligi ochib beriladi. Shuningdek, asliyat leksikasining o‘ziga xosligi bir necha tarjimonlarni jiddiy tadqiqot sari yetaklaydi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, inglizcha tarjimalar, to‘shak, mulozamat qilmoq, bog‘ish, ruscha tarjima va tahlil.

Abstract. The renowned and famous “Baburnama” is a classical work whose lexicon can serve as a source for every field. Its systematic translations into English perform the function of an empirical tool for linguistics and translation studies. This article analyzes the linguistic units with national-cultural characteristics used in the “Baburnama”, and the problems of their translation. It reveals the translators’ efforts to achieve adequacy in translation process. The translations of the “Baburnama” carried out in different periods by J.Leyden-William Erskine (1826), A.S. Beveridge (1926), and W.Thackston (1996) are analyzed. It is revealed the nationally cultural words are continual problems for translators and the approach of the language owner is of great importance. Furthermore, the uniqueness of the original lexicon leads several translators to serious research.

Keywords: “Baburnama”, English translations, toshak, mulozamat qilmoq, bog‘ish, Russian translation and analysis.

Millatga xos urf-odatlar tarjimaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik xalqning dunyo qarashi, o‘y-fikri, kundalik turmush tarzi, ekin ekishidan tortib, ovqatlanish axloq-odobi va siyosiy-ijtimoiy hayotida ham o‘z aksini topadi, ushbu milliy-madaniy qadriyatlarini inson hayoti davomida hech qachon buza olmaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham qo‘llangan iboralarning barchasi milliy va madaniydir. Ushbu jihatlarni tarixiy misollarda ko‘rish mumkin bo‘lgan leksemalardan biri “bog‘ish”ning mazmuni va tarjimalarini tahlil qilishga o‘z diqqat e’tiborimizni qaratamiz. Zahiriddin Bobur “Boburnoma”sida bunday yozadi.

Ул фурсатлар Темурия салотини дастури била тўшак устида ўлтурур эрдим. Ҳамза Султон била Маҳдий Султон ва Мамоқ Султонким келдилар, бу салотиннинг таъзимига қўнуб тўшакдин тушуб, бу султонлар била кўруштум. Султонларни ўнг қўлда боғишда ўлтургуздум. Муҳаммад Ҳисорий бошлиқ борча мўғуллар келдилар. Борча мулозаматни ихтиёр қилдилар [“Бобурнома”, 2002: 53].

Ushbu berilgan misolda ajratib yozilgan *to‘shak, bog‘ishda o‘lturg‘uzdum, mulozamatni ixtiyor qildilar* til birliklari milliy va madaniy jumalardir. Uni tabdilda ham mazmunini kuzatamiz:

U paytda temuriy sultonlar rasmi bilan *to‘shak* ustida o‘tirgandim. Hamza Sul-ton bilan Mahdiy Sul-ton va Mamoq Sul-ton kelganlarida, bu sultonlarning ta’zimiga o‘rnimdan turib, *to‘shakdan* tushib, sultonlar bilan ko‘rishdim. Sultonlarni o‘ng qo‘l tomoniga o‘tirg‘izdim. Muhammad Hisoriy boshliq barcha mo‘g‘ullar keldilar. Barchasi *mulozimlikni ixtiyor qildilar* [“Бобурнома”, 2008: 49].

Asliyat matnida temuriy sultonlar davridagi *to‘shakda* o‘tirish udum bo‘lgani, *mulozamatni ixtiyor qilmoq* gapi sultonlarning ko‘pchiligi podshohga xizmat qilishi, ya’ni *mulozimlik qilish* istagida bo‘lishini tabdilda aks etganini ko‘ramiz, lekin *bog‘ishning* ma’nosini tabdil mualliflari ochib bera olmaganlar. Asliyat misolining rus tilidagi tarjimasi esa quyidagicha beriladi.

В это время по обычаю султанов-тимуридов я восседал **на ложе**. Когда пришли Хамза султан с Махди султаном и Мамак султанам, я поднялся из уважения к этим султанам и, сойдя с ложа, поздоровался с султанами. Султаны **сели** по правую руку от меня, **скрестив ноги**. Моголы, подначальные Мухаммад Хисари, тоже явились; все они **пожелали мне служить** [“Бобурнаме”, 2008: 29]. – Bu vaqtda temuriy sultonlar odatiga ko‘ra men *taxtiravonda* o‘tirgandim. Hamza Sulton, Mahdi Sulton va Mamaq sultonlar kelganlarida, men bu sultonlar bilan ko‘rishish uchun ularning hurmatiga taxtiravondan pastga tushib, salom berdim. Sultonlar *oyoqlarini chalishtirib* o‘ng tomonimga o‘tirishdi. Muhammad Hisorga itoat qiluvchi mo‘g‘ullar ham kelishdi. Ularning barchasi *menga xizmat qilish istagini bildirishdi*.

Asliyat mazmuni rus tilida biroz o‘zgargan, *to‘shakda* – на ложе, ya‘ni *taxtiravonda* deb o‘girilsa, *bog‘ishda o‘lturg‘uzdum* tiz cho‘kib emas *сели скрестив ноги*, ya‘ni rus millatiga xos *oyoqlarini chalishtirib o‘tirishdi* tarzida berilgan. *Mulozamatni ixtiyor qildilar* – *пожелали мне служить* – *xizmat qilish istagini bildirishdi* deb to‘g‘ri tarjima qilingan. Shu bilan birga unda ot turkumiga kirgan *bog‘ishning* tarjimasi tabdil kabi rus tilida ham aks etmagan. Rus tilida gapning qurilish strukturasi hisobga olsak, ba‘zi tushunchalarning millatga xos nuqtai nazari, tushuncha yoki g‘oyaning tarjima qilinishi tarjimashunoslik fanining o‘ziga xos qoidalariga bo‘ysunishni taqozo etadi, shunda aynan asliyat so‘zi to‘shakning rus tilida yo‘qligi *ложа* tushunchasiga ko‘chib o‘tadi, ushbu farqli jihatlar *bog‘ishda o‘lturg‘uzdum* – *сели скрестив ноги* – *oyoqlarini chalishtirib o‘tirishdi* orqali asliyat mazmunini qoplaganini ko‘ramiz. Tarjimada to‘shak taxtiravonga aylanib, sultonlarning o‘tirish shakli cho‘k tushib, tizzalab yoki tiz cho‘kib emas, oyoqlarini chalishtirib o‘tirdilarda aks etib, tarjimonning asliyatga aylanma yo‘llar bilan yondashishlari mana shunday jarayonlarda o‘z isbotini topgan.

Nima uchun rus xalqida to‘shak emas kursi ishlatilgan? Turkiy xalqlar nega to‘shakda o‘tiradi? Quruqlikda yashovchi xalqlarning to‘shakda o‘tirishi urf-odat, boshqa tomondan stuldan ko‘ra to‘shak qulay, uni taxlab tuya yoki otda olib yurish oson, turkiy qavmning aksariyati to‘shakda o‘tirib, ovqat tanovvul qilishlari o‘ziga xos turmush tarziga aylangan holat. Bundan tashqari sahro, cho‘lu biyobonlarda ham kursi emas to‘shak qulay anjomligi, tarixda odamlar chodirlarni tuya yoki otda o‘zi bilan tashib yurishlarini osongina ko‘z oldimizga keltiramiz. Xalqlarning etnografik yashash tarzi va joyga bog‘liq ushbu jihatlar tarjimada o‘ziga xos qiyinchiliklarni tug‘digan. Qolaversa asliyatda muallif

Ул фурсатлар Темурия салотини дастури била тўшак устида ўлтурур эрдим, deya urf bo‘lgan jihatni yodga soladi. Asliyat misoli inglizcha tarjimalarda yana-da o‘ziga xos aks etgan bo‘lib, J. Leyden – V. Erskinda quyidagicha tarjima qilinadi:

“On this occasion I received them sitting on a **toshak**, according to the custom of the sovereigns of the house of Taimur. Whem Khamzeh Sultan, with Mehedi Sultan and Mamak Sultan entered, I rose to do them honour, and descending from the toshak, embraced them, and **placed** them on my right hand **on a baghish**. A body of Moghuls, commanded by Muhammad Hissari, also came and **entered into my service** [J.Leyden–V.Erskin 1826; I37]. – Shu munosabat bilan men ularni Temur xonadoni udumiga oid bo‘lgan **to‘shakda** o‘tirgan holda qabul qildim. Hamza Sulton, Mahdi Sulton bilan birga ularga hurmat bajo keltirish uchun o‘rnimdan turib, **to‘shakdan tushdim**, ularni quchoqlab bag‘ringa bosdim va o‘ng tarafimga **bog‘ishga** o‘tirg‘izdim. Muhammad Hisori tomonidan boshqariladigan mo‘g‘ullar ham kelib, **mening xizmatimga kirishdi**”.

J. Leyden – V. Erskinlar asliyatni imkon qadar mazmunini aks ettirishga harakat qilib, to‘shakdani – on a toshak leksik kalka, *bog‘ishda o‘lturg‘uzdumni* – placed on a baghish buni ham kalka usulida bersa, *mulozamatni ixtiyor qildilar* – entered into my service – *xizmatimga kirdilar* tarzida tarjima qilganlar, ularning tarjimasida ba‘zi leksik birliklar o‘zgarsa ham asliyat matniga

yaqinroq tarjima bo‘lgan deb o‘ylash mumkin. Asliyat matni S. Beverijda quyidagicha tarjima qilingan:

“According to the custom of Timuriya sultans on such occasion, I had seated myself on a raised seat (*tushak*); when Hamza Sl. And Mamaq Sl. And Mahdi Sl. entered, I rose and went down to do them honour; we looked one another in the eyes and I placed them on my right, *bagish da*. A number of Mughuls also came, under Muhammad *Hisari*; all **elected for my service** [A. S. Beverij, 1921: 59]. – Temuriy sultonlarning urf-odatiga ko‘ra, men o‘zim baland qilib solingan o‘rin (*tushak*)da o‘tirgan edim; Hamza Sulton, Mamaq Sulton va Mahdi Sultonlar kirganida ularning hurmati uchun o‘rnimdan turib, (*to‘shakdan*) tushib ko‘rishdim va ularni o‘ng tomonga **bog‘ishda** o‘tqazdim. Muhammad Hisorning qo‘l ostidagi bir qancha mo‘g‘ullar ham keldilar. Ularning barchasi **menga xizmat qilish uchun ovoz berdilar**”.

S. Beverijda asliyatning millatga xos iboralar to‘shak qavsda kursivda beriladi. *Bog‘ish* tarjima qilinmasdan kalka qilinadi lekin *mulozamatni ixtiyor qildilar* esa *menga xizmat qilish uchun ovoz berdilar* tarzida aks etadi. Shu joyda tarjimon matnosti havola keltirib o‘tadi. Uning havolasi quyidagicha aks etgan:

“This pregnant phrase has been found difficult. It may express that Babur assigned the sultans places in their due precedence; that he seated them in a row; and that they sat cross-legged, as men of rank, and were not made, as inferiors, to kneel and sit back on their heels. Out of this last meaning, I infer comes the one given by dictionaries, “to sit at ease,” since the cross-legged posture is less irksome than the genuflection, not to speak of the ease of mind produced by honour received. *Off. 18b* and note on Ahmad’s posture; Redhouse *s.nn. baghish* and *bagdash*; and B.M. Tawarikh-i-guzida nasrat-nama, in the illustrations of which the chief personage, only, sits cross-legged”. – Ushbu homilador iboraning mazmunini topilishi juda mushkul bo‘ldi. Bobur sultonlarni ularning martabasiga qarab tegishli joylarni tayinlaganligini tasvirlagan bo‘lishi mumkin. Ular ketma-ketlikda *oyoqlarini chalishtirib* yoki tovonlari va oyolarining uchini ketiga tegizib, cho‘kkalab o‘tirdilar. So‘nggi so‘zdagi ma‘nodan tashqari men lug‘atlarda berilgan “*o‘z o‘rnida buklanib, ixcham o‘tirish*” degan xulosaga kelmoqdaman, chunki oyoqlarni bir biriga bukib, tiz cho‘kib o‘tirishlari urf-odat deb qabul qilingan va uning mazmuni boshqalar uchun u qadar hurmatsizlikni bildirmaydi, chunki bu joyda qabul qilingan urf tufayli bamaylixotir o‘tirish degan tushunchadan yiroq. *Tovarix-i-guzida nasrat- namaga* ishlangan suratlarda uning bosh qahramoni oyoqlarini buklab o‘tirishi ko‘rsatilgan va 18-sahifadagi Ahmadning o‘tirish holati bu haqida yaxshi eslatma bo‘ladi: Redxauz *s.nn* va *bagdash* yoki *bog‘ishning* ma‘nosi, – degan havolani keltiradi. S. Beverij birgina *bog‘ishga* berilgan ushbu havolasi bilan bizga asliyat muammosining yechimiga turtki bermoqda, chunki tabdilda va ruscha tarjimada ham aks etmagan *bog‘ish* S. Beverijning ilovasida to‘liq aks etib bo‘lgan va asliyat misoli V. Tekstonda qanday o‘girilganiga yana bir e‘tibor qaratamiz:

At that time, in accordance with the practice of Timurid rulers, I used to sit on a raised cushion. When Hamza Sultan, Mahdi Sultan, and Mamaq Sultan arrived, I rose to honor the princes, descended from the cushion platform, and held an interview with them, for which I seated them in the place of respect, to my right. All the Moghuls led by Muhammad of Hissar came and elected **to pay homage** [V. Tekston, 1996: 41]. – O‘sha paytdagi temuriy hukmdorlarning amaliyotiga muvofiq, men ko‘tarilgan baland *yostiqchada* o‘tirardim. Hamza Sulton, Mahdi Sulton va Mamoq Sultonlar kelganlarida, shahzodalarning sharafi uchun o‘rnimdan turib, *yostiqchali platformadan* ular bilan ko‘rishish uchun pastga tushdim va suhbatlashib, ularning hurmatini joyiga qo‘yib, o‘ng tomonimga o‘tqazdim. Muhammad Hisori boshqarib turgan barcha mo‘g‘ullar ham kelib, menga *iltifot ko‘rsatishlarini bir ovozdan aytdlar* (O‘zbekchaga so‘zma-so‘z ogirildi).

V. Tekston to‘shak o‘rnida yapon millati qo‘llaydigan to‘rtburchak yupqa yostiqlik shaklidagi cushion – to‘shakni qo‘llaydi, bog‘ishni esa umuman tarjimada aks ettirmaydi, mulozamatni ixtiyor qildilarni elected to pay homage ya‘ni iltifot ko‘rsatishlarini bir ovozdan aytdilar tarzida o‘g‘irgan. V. Tekston albatta yuqoridagi tarjimalar bilan tanish bo‘lgan, lekin forsiy variantda aks etmagan bog‘ishni o‘z tarjimasida aks ettirishni lozim topmagan degan xulosaga kelamiz. Tarjimon temuriylar davrida udum bo‘lgan an’anani nazarda tutib, asliyat mazmuni ochib berishi mumkin edi.

Aslida bog‘ishning ifodalanishini quyidagicha talqin etish mumkin. Bog‘ish: 1. toponim joy nomi sifatida tepa joy, do‘ng joy, so‘z turkumidan ot; 2. hayvonning nomi – kiyik; 3. kiyik terisidan yasalgan gilamcha tarzida qo‘llanishini tarjimonlar anglamagan.

Bobur kiyik ovlashni sevgan, tabiat bilan hamohang hayot kechinmalari uning bir necha bor kiyik ovlaganini eslatib o‘tadi. Ushbuning isboti uchun bir misolga e‘tibor qaratamiz:

Бу навоҳи кийиғи асру қалин бўлур, бир мартаба овладук. Бир-икки кундин сўнг тамом аймоқлар келиб мулозамат қилдилар [“Бобурнома”, 2002: 141]. – Bu yerlarda kiyik juda ko‘p bo‘ladi. Bir marotaba ovladik. Bir-ikki kundan so‘ng aymoqlarning hammasi kelib **mulozamat qildilar** [“Бобурнома”, 2008: 143].

Asliyat misoliga qaytsak, *Ул фурсатлар Темурия салотини дастури била тўшак устида ўлтурур эрдим. Ҳамза Султон била Маҳдий Султон ва Мамоқ Султонким келдилар, бу салотиннинг таъзимига қўнуб тўшакдин тушуб, бу султонлар била кўруштум. Султонларни ўнг қўлда боғишда ўлтургуздум. Муҳаммад Ҳисорий бошлиқ борча мўғуллар келдилар. Борча мулозаматни ихтиёр қилдиларни* biz quyidagicha tarjima qilamiz:

At that time I was sitting on a **toshak** according to the custom of the Timurid sultans. When Hamza Sultan and Mahdi Sultan and Mamak Sultan came, I got off **toshak** for their respect, to bow to these sultans and embraced them. I sat sultans on my right hand on **bagish** (deer skin carpet) [etsy.com]. All the Mughals, led by Muhammad Hisari, came and **tendered me their service**.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mumtoz asar tarjimasida o‘ta murakkab vazifa, milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalagan til birliklarini to‘la to‘kis o‘g‘irish har qachon ham oson bo‘lmagan. Tarjimon uchun nafaqat mumtoz adabiyot tilini bilish, umubashariy ehtiyojga molik jihatlarni, har qanday sohani qamrab oladigan terminlarni, tarixiy davr leksikasini puxta o‘rganishni talab etadi, tarixiy davr, narsa va hodisalar xronikasidan yaxshi xabardor bo‘lish kerakligini o‘rgatadi.

Adabiyotlar

1. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – 335 б.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 287 б.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобур-наме. – Т.: Шарқ., 2008. – 242 с.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубайян. – Т.: Шарқ., 2014. – 448 б.
6. Eiji Mano. Zahir al-din Muhammad Babur. Bābur-nāma (Vaqāyi). Critical edition based on four Changhatay texts wit introduction and notes Kyoto, Syokado, 1995.-P.588.
7. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 p.
8. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 p.
9. Xurramov, O. (2023). Roman kontekstida Bobur va boburiylar obrazi. O‘zbekiston til va madaniyat jurnali.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84